Qabul qilindi: 23-noyabr 2026-yil • Ma’qullandi: 25-noyabr 2026-yil • Nashr qilindi: 27-noyabr 2026-yil

TURIZM SOHASIDA INSON KAPITALINI BAHOLAŞNING HUDUDIY STATISTIK KÖRSATKIÇLAR TIZIMI

Dustova Aziza Qahramonovna

Osiyo xalqaro universiteti «Iqtisodiyot» kafedrasi dotsenti, Buxoro davlat universiteti doktoranti (DSc), Buxoro şahri, Özbekiston, dustovaaziza@oxu.uz, ORCID ID: 0009-0000-4267-1396



Annotatsiya: Maqolada Özbekistonda turistik oqimlarning jadal ösişi şaroitida turizm sohasi inson kapitalini hudud darajasida baholaş zarurati asoslangan. Inson kapitalining xalqaro indekslari va turizmni rivojlantirişning amaldagi hududiy maqsadli körsatkiçlari sohaning kadrlar tarkibiy qismini aks ettirmasligi körsatilgan. Rasmiy statistikaga asoslangan tört blokli statistik körsatkiçlar tizimi taklif etilgan.

Kalit sözlar: inson kapitali, turizm, statistik körsatkiçlar tizimi, hududiy statistika, mehnat unumdorligi, Buxoro viloyati.

Аннотация: В статье обоснована необходимость оценки человеческого капитала туристической отрасли на региональном уровне в условиях ускоренного роста туристических потоков в Узбекистане. Показано, что международные индексы человеческого капитала и действующие региональные целевые показатели развития туризма не отражают кадровую составляющую отрасли. Предложена четырёхблочная система статистических показателей, формируемая на основе официальной статистики.

Ключевые слова: человеческий капитал, туризм, система статистических показателей, региональная статистика, производительность труда, Бухарская область.

Abstract: The paper substantiates the need to assess human capital in tourism at the regional level amid the rapid growth of tourist flows in Uzbekistan. It shows that international human capital indices and the current regional tourism targets do not reflect

the workforce dimension of the sector. A four-block system of statistical indicators based on official statistics is proposed.

Keywords: human capital, tourism, statistical indicator system, regional statistics, labour productivity, Bukhara region.

Milliy statistika qömitasi ma’lumotlariga köra, 2025-yilda xorijiy fuqarolar tomonidan Özbekistonga turistik maqsadlarda 11 679,6 ming safar amalga oşirilgan, bu 2024-yilga nisbatan 46,8 foiz köp; 2021-yilda bu körsatkiç 1 881,3 mingni taşkil etgan [2]. 2026-yilning yanvar–oktabr oylarida 11,6 mln xorijiy turist taşrif buyurgan (ötgan yilning mos davriga nisbatan +19,4 foiz), turistik xizmatlar eksporti 6,08 mlrd AQŞ dollariga yetib, mamlakat umumiy eksportining 20 foizini taşkil etgan [3].



Buxoro viloyatida 2026-yilning dastlabki töqqiz oyida 2,035 mln dan ortiq xorijiy va 4,1 mln dan ortiq mahalliy sayyoh qabul qilingan, joylaştiriş vositalari soni 757 taga yetgan, turizm va unga turdoş tarmoqlarda qariyb 85 ming kişi band [5]. Şu bilan birga, viloyatda turizmni 2022–2026-yillarda rivojlantiriş dasturining maqsadli körsatkiçlari turistlar soni, eksport, xonalar soni va töliş koeffitsiyentini qamrab oladi, ammo kadrlar malakasi va tayyorlaş böyiça birorta körsatkiçni öz içiga olmaydi [1]. Milliy statistika qömitasining turizm va dam oliş böyiça yillik press-relizida ham xodimlar soni, ta’lim darajasi va kasbiy malakasi körsatkiçlari keltirilmaydi [2]. Bu holat mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Şu munosabat bilan tadqiqotning maqsadi – turizm sohasida inson kapitalini hudud darajasida baholaş uçun rasmiy statistikaga tayanadigan körsatkiçlar tizimini işlab çiqiş. Bunda nazariy asos sifatida inson kapitali nazariyasi (T.W. Schultz, G.S. Becker) [8; 9] va inson kapitalining hududiy rivojlanişdagi örni böyiça tadqiqotlar [10] olindi. Tizimli tahlil, xalqaro indekslar metodikasini qiyosiy tahlil qiliş, körsatkiçlarni guruhlaş va normallaştiriş usullari qöllanildi. Axborot bazasi – Milliy statistika qömitasi, Turizm qömitasi, Buxoro viloyati hokimligi ma’lumotlari, Jahon banki va BMT Taraqqiyot dasturi hisobotlari.

Inson kapitalini ölçaşning xalqaro indekslari milliy darajada hisoblanadi. Jahon bankining Inson kapitali indeksi (HCI) Özbekiston uçun 0,62 ni taşkil etadi; maktabda kutilayotgan öqiş muddati 12,0 yil bölsa-da, özlaştiriş sifati hisobga olingan öqiş muddati

9,1 yilga teng, ya’ni 2,9 yillik ta’lim samarasi yöqotiladi [6]. BMTTDning 2023-yil uçun Inson taraqqiyoti indeksi 0,740 bölib, mamlakat 193 davlat orasida 107-örinda; kutilayotgan umr davomiyligi 72,4 yil, örtaça ta’lim yillari 11,9 yil [7]. Bu indekslar tarmoq va hudud xususiyatlarini, xususan, turizm uçun muhim bölgan xorijiy til, xizmat körsatiş va raqamli könikmalarni qamrab olmaydi.

Muallif tomonidan tört blokdan iborat hududiy körsatkiçlar tizimi işlab çiqildi. 1-blok – ta’lim kapitali: turizmda band xodimlar orasida oliy va örta maxsus ma’lumotlilar uluşi, soha yönalişi bitiruvçilari soni (10 ming aholiga), malaka oşirgan xodimlar uluşi. 2-blok – salomatlik kapitali: hududda kutilayotgan umr davomiyligi, mehnatga layoqatli aholining kasallaniş darajasi. 3-blok – kasbiy-kommunikativ kapital: litsenziyaga ega gid-ekskursiya yetakçilari soni, kamida bitta xorijiy tilni biladigan xodimlar uluşi, raqamli platformalardan foydalanuvçi korxonalar uluşi. Bu blok uçun bazaviy ma’lumot mavjud: 2025-yilda respublikada 4 448 nafar litsenziyaga ega gid faoliyat yuritgan, yil davomida 1 048 nafar yangi gid tayyorlangan [4]. 4-blok – natijaviy samaradorlik: bir xodimga töğri keladigan turistik xizmatlar hajmi, bir joylaştiriş vositasiga töğri keladigan joylaştirilgan şaxslar soni, xonalarning töliş koeffitsiyenti.

4-blok körsatkiçlarini rasmiy ma’lumotlar asosida hisoblaş mumkin. 2025-yilda Buxoro viloyatida yuridik şaxs maqomidagi 370 ta joylaştiriş vositasi (respublika böyiça 3 644 ta) 388,4 ming kişini (respublika böyiça 4 356,1 ming) joylaştirgan [2]. Muallif hisob-kitobiga köra, bir joylaştiriş vositasiga viloyatda 1 050 kişi, respublika böyiça esa 1 195 kişi töğri keladi, ya’ni viloyat körsatkiçi örtaça darajadan 12 foiz past. Bu farq vositalar hajmi tarkibi bilan ham, xizmat sifati va boşqaruv salohiyati bilan ham izohlanişi mumkin; aynan şuning uçun natijaviy körsatkiçlarni inson kapitali bloklari bilan birgalikda tahlil qiliş zarur.

Körsatkiçlar min-max usulida [0; 1] oraliğiga keltiriladi, bloklar subindekslari körsatkiçlarning arifmetik örtaçasi sifatida, yakuniy indeks esa subindekslarning geometrik örtaçasi sifatida hisoblanadi [11]. Dastlabki bosqiçda bloklarga teng vazn beriladi. Tizimning yangiligi şundaki, unda inson kapitalining xalqaro indekslari turizm tarmoği va hudud xususiyatlariga moslaştirilgan hamda turizm uçun xos bölgan kasbiy-kommunikativ

kapital alohida blok sifatida ajratilgan.

Xulosa qilib aytganda, turizmning jadal ösişi şaroitida hududiy dasturlar faqat infratuzilma va turistlar oqimi körsatkiçlari bilan çeklanmoqda. Taklif etilgan tört blokli körsatkiçlar tizimi turizm inson kapitalini rasmiy statistika asosida ölçaş, hududlarni soliştiriş va kadrlar tayyorlaş buyurtmasini asoslaş imkonini beradi. Tizimning 3- va 4-bloklari körsatkiçlarini Buxoro viloyati turizmini rivojlantiriş dasturining maqsadli körsatkiçlariga kiritiş tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi 543-son “2022 — 2026-yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasida turizm va dam olishning rivojlanishi (2025-yil uchun): press-reliz. – Toshkent, 10.08.2026. – URL: https://stat.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi. Uzbekistan welcomes 11.6 million foreign tourists in the first 10 months of 2026. – 11.11.2026.

4. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi. 2025-yil — turizm sohasida yangi bosqich va yuqori natijalar yili. – 15.01.2026.

5. Buxoro viloyati hokimligi. Butunjahon turizm kuni: Buxoroda soha fidoyilariga ehtirom ko‘rsatildi. – 29.09.2026. – URL: https://gov.uz/oz/buxoro/news/view/226120.

6. World Bank. Uzbekistan: Human Capital Index 2020 (Human Capital Project, October 2020). – Washington, DC: World Bank, 2020.

7. UNDP. Human Development Report 2025. A Matter of Choice: People and Possibilities in the Age of AI. Statistical Annex, Table 1. – New York: UNDP, 2025.

8. Schultz T.W. Investment in Human Capital // The American Economic Review. – 1961. – Vol. 51, No. 1. – P. 1–17.

9. Becker G.S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. – New York: National Bureau of Economic Research, 1964. – 187

p.

10. Gennaioli N., La Porta R., Lopez-de-Silanes F., Shleifer A. Human Capital and Regional Development // The Quarterly Journal of Economics. – 2013. – Vol. 128, No. 1. – P. 105–164.

11. OECD, European Commission JRC. Handbook on Constructing Composite Indicators: Methodology and User Guide. – Paris: OECD Publishing, 2008. – 158 p.

